

AHOLI VBANDLIGINI TA`MINLASHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Prokurorlik faoliyati” yo`nalishi magistiri
Izzatillayev Mirjalol Odiljon o`g`li*

Annotatsiya: Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda aholi bandligini ta`minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri hisolanadi. Aholini sifatli mehnat sharoitlari bilan ta`minlash, o`zini o`zi band qilgan shaxslarning rag`batlantirilishi, tadbirkorlikni qo`llab quvvatlash ushbu funksiyani ta`minlashda o`zining ijobiy natijasini ko`rsatib kelmoqda. Mazkur maqola Aholi bandligini ta`minlashning bugungi kundagi holatini va qonunchilikda belgilangan normalar tuzulishi haqida ma`lumot beradi.

Kalit so`zlar: Aholi bandligi, ishsizlik, subsidiya, grant, mehnat resurslari balansi, ijtimoiy shartnoma.

THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF PROVIDING THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION

Annotation: In today's developing society, ensuring the employment of the population is considered one of the main functions of the state. Providing the population with quality working conditions, encouraging self-employed persons, supporting entrepreneurship has been showing its positive results in providing this function. This article provides information about the current state of ensuring employment of the population and the formation of norms established by the legislation.

Key words: Population employment, unemployment, subsidy, grant, balance of labor resources, social contract.

Ta'kidlash joizki, Xalq boy bo`lsa davlat ham boy bo`ladi. Har qanday davlatda xaqning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo`naltirilgan aholi bandligini ta`minlash va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog`lig`ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo`l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizasiya qilish bo`yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish mamlakat rivojlanishini ta'minlashning zaruriy shartlaridan sanaladi. Bu borada qator me'yoriy-

huquqiy hujjatlar, dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bandlik bo'yicha yangi ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb masalalardir. Shu bois ham joylarda tegishli mas'ullar tomonidan «mahallabay», «fuqarobay» ishlash tizimi asosida ish olib borilib, aholining muammolari, ish bilan band qilish masalalari o'rganilmoqda. Shu asosda amaliy choralar ko'rib, ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlashga ko'mak berilmoqda. Ishsizlik darjasining oshishini kamaytirish esa har doimgidek davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Ishsizlik — mehnat bozorida talabga ega bo'lmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchining mavjudligi bilan belgilanadi¹. Bunday shaxslarga esa ishsizlik nafaqasi to'lash lozim bo'ladi. Ishsizlik nafaqasi — ishsiz shaxslarni davlat tomonidan kafolatlangan tarzda pul shaklida qo'llab-quvvatlash turi hisoblanadi. Mehnat resurslari shakllantirilib ushbu ma'lumotlar balansda ko'rsatiladi.

Mehnat resurslari balansi — mehnat resurslarining sonini va tarkibini, shuningdek ularning band bo'lgan, band bo'lmagan va iqtisodiy jihatdan faol bo'lmagan aholiga taqsimlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimidir.² O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir deb ko'rsatib o'tilgan va fuqarolarga o'zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, shu jumladan, haq to'lanadigan ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mutlaq huquq tegishlidir. Aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-sonli qarori va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu normativ huquqiy hujjatlar asosida bugungi kunda aholini mehnatga, kasbga o'qitish ularga grantlar va subsidiyalar berish tartiblari joriy etildi va eng asosiysi Aholi bandlikka ko'maklashish markazlari

¹ Internet manbasi (<https://lex.uz/ru/docs>)

O'zbekiston Respublikasining qonuni, 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son

tashkil etildi va bu markazlar tomonidan bandlikni ta`minlash bo`yicha ijtimoiy shartnoma imzolanib ushbu shrtnoma asosida litsey va kollej bitiruvchilari,”Ayollar daftari” va “Temir daftar”da ro`yxatda turuvchi shaxslarni mehnatga jalb etish uchun qator imtiyozlar berilmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro`yxati

1. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To`ldirilgan ikkinchi nashri. _ Toshkent: “O`zbekiston”nashriyoti, 2022. 416 b;
2. O`zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to`g`risida”gi qonuni;
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 oktyabrdagi “Ishsiz va band bo`lmagan aholini kasb-hunarga o`qitish mintaqaviy markazlarida o`qishga qabul qilish, kasb-hunarga o`qitish tartibi to`g`risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” gi 824-sonli qarori;
4. www.lex.uz;
5. www.consultant.ru;
6. <https://mehnat.uz>